O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARI HAMKORLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Xolmurodov Muhammadali Ilhom o‘g‘li
Toshkent davlat agrar unversiteti Agroiqtisodiyot logistika va xizmatlar fakulteti Huquqshunoslik kafedrasi Lavozimi: Assistent o‘qituvchi

Tel: +998932779966

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari — xalq deputatlari Kengashlari o‘rtasidagi hamkorlikning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Unda Senatning hududiy vakillik palatasi sifatidagi maqomi, mahalliy Kengashlarning davlat hokimiyati vakillik organlari sifatidagi o‘rni hamda ushbu ikki institut o‘rtasidagi konstitutsiyaviy bog‘liqlik ilmiy-huquqiy jihatdan yoritiladi. Maqolada amaldagi qonunchilikda Senat va mahalliy Kengashlar o‘rtasidagi hamkorlikning umumiy asoslari mavjud bo‘lsa-da, uning aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, protsessual tartibi va natijadorlik mezonlari yetarlicha belgilanmagani asoslab beriladi. Shuningdek, hududiy manfaatlarni parlament darajasida ifodalash, mahalliy Kengashlar qarorlarini Senat faoliyatiga integratsiya qilish va parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Oliy Majlis Senati, xalq deputatlari Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati, vakillik organlari, hududiy vakillik, parlament nazorati, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar, hududiy manfaatlar, mahalliy Kengash qarorlari, qonunchilikni takomillashtirish.

Аннотация

В данной статье анализируются конституционно-правовые основы взаимодействия Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан и представительных органов государственной власти на местах — Кенгашей народных депутатов. Рассматриваются правовой статус Сената как палаты территориального представительства, роль местных Кенгашей как представительных органов государственной власти, а также конституционная взаимосвязь между указанными институтами. В статье обосновывается, что, несмотря на наличие общих правовых предпосылок взаимодействия Сената и местных Кенгашей, действующее законодательство недостаточно полно регулирует его организационно-правовые механизмы, процессуальный порядок и критерии эффективности. Кроме того, выдвигаются предложения по совершенствованию механизмов выражения территориальных интересов на парламентском уровне, интеграции решений местных Кенгашей в деятельность Сената и усилению парламентского контроля.

Ключевые слова: Сенат Олий Мажлиса, Кенгаш народных депутатов, местная государственная власть, представительные органы, территориальное представительство, парламентский контроль, конституционно-правовые основы, территориальные интересы, решения местных Кенгашей, совершенствование законодательства.

Annotation

This article analyzes the constitutional and legal foundations of cooperation between the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan and local representative bodies of state authority — the Councils of People’s Deputies. The article examines the constitutional status of the Senate as a chamber of territorial representation, the role of local Councils as representative bodies of state authority, and the institutional relationship between these bodies. It is argued that although the

current legislation provides general legal grounds for cooperation between the Senate and local Councils, the specific organizational and legal mechanisms, procedural framework, and effectiveness criteria of such cooperation are not sufficiently regulated. The article also puts forward proposals aimed at improving the representation of territorial interests at the parliamentary level, integrating decisions of local Councils into the activities of the Senate, and strengthening parliamentary oversight.

Keywords: Senate of the Oliy Majlis, Councils of People's Deputies, local state authority, representative bodies, territorial representation, parliamentary oversight, constitutional and legal foundations, territorial interests, decisions of local Councils, improvement of legislation.

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini demokratik tashkil etish, vakillik institutlari faoliyatini kuchaytirish hamda hududiy manfaatlarni parlament darajasida ifodalash masalalari konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyati tizimida vakillik organlarining o‘rnini yanada aniqlashtirdi. Xususan, unda xalq deputatlari Kengashlari viloyatlar, tumanlar va shaharlarda davlat hokimiyati vakillik organlari sifatida belgilangan bo‘lib, ularga deputatlar orasidan saylanadigan rais boshchilik qilishi hamda hokim bir vaqtning o‘zida Kengash raisi bo‘la olmasligi mustahkamlangan. Bu holat mahalliy vakillik hokimiyatining ijro hokimiyatidan institutsional jihatdan ajratilishi va uning mustaqil konstitutsiyaviy maqomini kuchaytirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanadi.

Davlat va huquq nazariyasida davlat hokimiyati organlari o‘zaro alohida emas, balki yagona davlat mexanizmining tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. X.T. Odilqoriyevning fikricha, davlat va huquq nazariyasi “davlat”, “davlat apparati”, “davlat organi”, “huquqiy tartibga solish mexanizmi”, “qonuniylik” kabi umumiy yuridik kategoriyalarni o‘rganadi va ular sohaviy yuridik fanlar uchun metodologik

asos vazifasini bajaradi1. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari o‘rtasidagi hamkorlikni oddiy tashkiliy aloqa emas, balki davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Senat va mahalliy vakillik organlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, avvalo, ularning shakllanish tartibida namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Demak, Senatning hududiy vakillik xususiyati bevosita mahalliy vakillik organlari bilan uzviy bog‘liqdir. Aynan shu bog‘liqlik Senat va xalq deputatlari Kengashlari o‘rtasidagi hamkorlikni konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslari ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur kafolat sifatida baholanadi. S. Aymuratovning fikricha, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslari yaratilishi ularning faoliyati kafolati bo‘lib xizmat qiladi 2 . Muallif mahalliy Kengashlarning vakillik xususiyatini ularning aholi tomonidan saylanishi, tarkibida aholi xohish-irodasini aks ettiruvchi turli tabaqa vakillarining mavjudligi hamda ko‘ppartiyaviylik asosida shakllanishi bilan izohlaydi. Ushbu qarashlardan kelib chiqib, xalq deputatlari Kengashlarini hududiy manfaatlarni aniqlash va ifodalashning boshlang‘ich vakillik bo‘g‘ini sifatida baholash mumkin.

---

[1] Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – B. 13–14.

[2] Aymuratov S. O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari vakolatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2023. – Vol. 3, Issue 8. – B. 82.

S.Aymuratov mahalliy davlat hokimiyati organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi demokratik boshqaruv tizimining ajralmas bo‘g‘ini sifatida tavsiflaydi. Uning qayd etishicha, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi, vakolatlari va tashkil etilish tartibini belgilab berdi[3]. Shuningdek, muallif mahalliy hokimiyat tizimida vakillik hokimiyati — xalq deputatlari Kengashlari, ijro hokimiyati esa hokimliklar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv mahalliy Kengashlarning faqat mahalliy masalalarni muhokama qiluvchi organ emas, balki hududiy manfaatlarni shakllantiruvchi va ularni yuqori vakillik darajasiga olib chiqishi mumkin bo‘lgan konstitutsiyaviy institut ekanini asoslash imkonini beradi.

Shu bilan birga, amaldagi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar tahlili Senat va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari o‘rtasidagi hamkorlik masalasida ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, mahalliy Kengashlarda shakllanadigan takliflar, hududiy muammolar, hokim hisobotlari bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va nazorat natijalarini Senat qo‘mitalari faoliyatiga kiritishning aniq protsessual mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayrim manbalarda xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan aloqalarini mustahkamlash zarurligi alohida qayd etiladi. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari xalq deputatlari Kengashlari hududiy darajada xalq irodasini ifodalovchi, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni ko‘rib chiquvchi va tegishli hududdagi davlat boshqaruvi ustidan vakillik nazoratini amalga oshiruvchi konstitutsiyaviy institutdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasiga ko‘ra, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlari hisoblanadi. Kengashga deputatlar orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi. Eng muhim

[3] Turdiyeva B. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari // Modern Education and Development. – 2025. – №37, 3-qism. – B. 373.

jihatlardan biri shundaki, hokim bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas.

Bu norma mahalliy darajada vakillik hokimiyati bilan ijro hokimiyatini institutsional jihatdan ajratishga xizmat qiladi. Ilgari mahalliy hokim bir vaqtning o‘zida Kengash raisi sifatida ham faoliyat yuritgan holat vakillik va ijro hokimiyati o‘rtasidagi real muvozanatni cheklashi mumkin edi. Yangi konstitutsiyaviy yondashuv esa xalq deputatlari Kengashlarining mustaqil vakillik organi sifatidagi maqomini kuchaytiradi.

R.R. Hakimovning fikricha, zamonaviy parlament xalq suveren irodasini ifodalovchi, muhim ijtimoiy munosabatlarni qonunlar orqali tartibga soluvchi hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi oliy vakillik organidir. Muallif ikki palatali parlamentga o‘tishning muhim maqsadlaridan biri sifatida umumdavlat va hududiy manfaatlar muvozanatini ta’minlashni ko‘rsatadi. Shu jihatdan Senatning mahalliy Kengashlar bilan hamkorligi uning hududiy vakillik palatasi sifatidagi konstitutsiyaviy maqomidan kelib chiqadigan zaruriy institut sifatida baholanishi lozim[4].

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunning 1-moddasida ham viloyatlar, tumanlar va shaharlarda xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari ekanligi belgilangan. Shu moddaning mazmunidan kelib chiqib, tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi hamda hokimlar tegishli xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobdor hisoblanadi. Demak, Konstitutsiya va maxsus qonun mahalliy davlat hokimiyati tizimida ikki asosiy institutni belgilaydi: birinchisi — xalq deputatlari Kengashlari, ya’ni vakillik hokimiyati; ikkinchisi — hokimliklar, ya’ni ijro etuvchi hokimiyat. Ushbu ikki institut o‘rtasidagi nisbat mahalliy boshqaruvning demokratik, hisobdor va ochiq bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan.

[4] ЮРИДИЧЕСКИЙ Т. Г., ХАКИМОВ Р. Р. КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

Senat va mahalliy Kengashlar o‘rtasidagi bog‘liqlik bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, Senat a’zolari mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlari tomonidan saylanadi. Konstitutsiyaning 128-moddasida Senat a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida, mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanishi belgilangan. Bu holat mahalliy Kengashlarni Senat shakllanishining konstitutsiyaviy subyekti sifatida ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, mahalliy Kengashlar hududiy manfaatlarni bevosita aniqlovchi va ifodalovchi organlardir. Ular o‘z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mahalliy budjet, kommunal xizmatlar, ekologiya, transport, bandlik va boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi. Senat esa hududiy vakillik palatasi sifatida ushbu manfaatlarning respublika darajasida ifodalanishini ta’minlashi lozim.

Uchinchidan, mahalliy Kengashlar hokim hisobotlarini eshitadi va ular yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Konstitutsiyaning 125-moddasiga muvofiq, viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ushbu hisobotlar bo‘yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi. Bunday qarorlar hududdagi tizimli muammolarni aniqlash va ularni yuqori darajaga olib chiqish uchun muhim huquqiy asos bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, xalq deputatlari Kengashi va hokim o‘z vakolatlari doirasida tegishli hududdagi barcha tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi. Bu esa mahalliy Kengash qarorlarining huquqiy kuchga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois ularning qarorlari Senat tomonidan hududiy manfaatlarni aniqlashda muhim axborot va huquqiy manba sifatida baholanishi lozim.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun Senat va mahalliy Kengashlar hamkorligini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asoslar beradi. Qonunning 1-moddasida xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari ijrosini ta’minlashi belgilangan.

R.R. Xakimov hokimlarning mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligi mexanizmlarini mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida asoslaydi. Ushbu ilmiy xulosa Senat va mahalliy Kengashlar hamkorligini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki hokim hisobotlari bo‘yicha mahalliy Kengashlarda qabul qilingan qarorlar Senat qo‘mitalari tomonidan umumlashtirilsa, hududiy muammolar respublika darajasida parlament nazorati predmeti sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin[5].

Mazkur norma Senat va mahalliy Kengashlar o‘rtasidagi hamkorlik uchun bevosita asos bo‘la oladi. Chunki Senat Oliy Majlis palatalaridan biri sifatida qabul qilayotgan qarorlarning joylarda ijro etilishi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Agar mahalliy Kengashlar Oliy Majlis palatalari qarorlari ijrosi yuzasidan joylardagi holatni o‘rgansa, ushbu axborot Senatning parlament nazorati faoliyati uchun muhim manba bo‘lishi mumkin.

Qonunda xalq deputatlari Kengashi faoliyatini tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan ta’minlash uchun Kengash kotibiyati tashkil etilishi ham belgilangan. Kengash kotibiyati yuridik shaxs bo‘lib, uning faoliyati mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi. Bu institut mahalliy Kengashlarning institutsional mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Kengash kotibiyati Senat bilan axborot almashinuvi, hududiy takliflarni tayyorlash, Kengash qarorlarini umumlashtirish va

[5] Xakimov R.R. Davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 5–6.

senatorlarga yetkazish bo‘yicha muhim tashkiliy bo‘g‘in sifatida rivojlantirilishi mumkin.

Qonunda doimiy va muvaqqat komissiyalar faoliyatiga oid normalar ham mavjud. Ushbu komissiyalar normativ-huquqiy hujjatlarni, xalq deputatlari Kengashi qarorlarini targ‘ib etish, ularning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishi belgilangan. Bu komissiyalar Senat qo‘mitalari bilan aloqaga kirishishi, hududiy masalalar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar tayyorlashi va mahalliy darajadagi muammolarni yuqori parlament darajasiga olib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

Shunday qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonun mahalliy Kengashlarning Senat bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy va institutsional asoslarni qisman yaratadi. Biroq mazkur hamkorlikning aniq tartibi, shakllari, muddatlari va huquqiy oqibatlari alohida tartibga solinmagan.

Senat va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hamkorligining amaldagi huquqiy asoslari tahlili bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Birinchi muammo Senat va mahalliy Kengashlar o‘rtasidagi hamkorlikning maxsus protsessual tartibi mavjud emas. Konstitutsiyada ular o‘rtasidagi bog‘liqlik Senatni shakllantirish tartibi orqali ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, mahalliy Kengashlar takliflarini Senat qo‘mitalarida ko‘rib chiqish, ularning qarorlari asosida parlament nazorati tadbirlarini amalga oshirish tartibi aniq belgilanmagan.

Ikkinchi muammo mahalliy Kengash qarorlarining Senat faoliyatidagi huquqiy maqomi noaniq. Masalan, viloyat Kengashi muayyan hududiy muammo bo‘yicha qaror qabul qilsa, Senatning tegishli qo‘mitasi ushbu qarorni ko‘rib chiqishi shartmi yoki yo‘qmi, bu masala qonunchilikda ochiq qolmoqda.

Uchinchi muammo hokim hisobotlari natijalarini respublika darajasida umumlashtirish mexanizmi yetarli emas. Konstitutsiyaga ko‘ra, hokimlar mahalliy Kengashlarga hisobot beradi, Kengashlar esa qarorlar qabul qiladi. Ammo ushbu

hisobotlar natijasida aniqlangan tizimli muammolar Senat darajasida tahlil qilinishi, umumlashtirilishi va parlament nazorati predmetiga aylantirilishi bo‘yicha aniq mexanizm mavjud emas.

To‘rtinchi muammo Senat qo‘mitalari va mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari o‘rtasida tizimli axborot almashinuvi yetarli darajada tartibga solinmagan. Amaliyotda bunday hamkorlik mavjud bo‘lishi mumkin, biroq uni majburiy va doimiy huquqiy mexanizm sifatida mustahkamlash zarur.

Beshinchi muammo yagona elektron axborot almashinuvi platformasining yetarlicha shakllanmaganidir. Agar mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilingan qarorlar, takliflar, hududiy muammolar va hokim hisobotlari bo‘yicha xulosalar yagona elektron tizim orqali Senatga yuborilsa, hududiy manfaatlarni parlament darajasida ifodalash yanada samarali bo‘ladi.

Senat va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hamkorligini takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunga Senatning xalq deputatlari Kengashlari bilan hamkorligiga bag‘ishlangan alohida modda kiritish maqsadga muvofiq. Unda Senatning mahalliy Kengashlar bilan qonun ijodkorligi, parlament nazorati, hududiy rivojlanish dasturlari va davlat dasturlari ijrosi yuzasidan hamkorlik qilishi belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, xalq deputatlari Kengashlariga hududiy ahamiyatga ega masalalar yuzasidan Senat qo‘mitalariga rasmiy taklif kiritish huquqini berish zarur. Bunday takliflar Senat qo‘mitasi tomonidan belgilangan muddatda ko‘rib chiqilishi va natijasi bo‘yicha tegishli Kengashga yozma axborot yuborilishi kerak.

Uchinchidan, hokim hisobotlari bo‘yicha mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni Senat qo‘mitalarida umumlashtirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish lozim. Masalan, bandlik, ichimlik suvi, yo‘l infratuzilmasi, ekologiya, ta’lim yoki

sog‘liqni saqlash bo‘yicha hududlarda aniqlangan muammolar Senatning tegishli qo‘mitasi tomonidan yillik tahliliy axborot sifatida umumlashtirilishi mumkin.

To‘rtinchidan, Senat qo‘mitalari va xalq deputatlari Kengashlari doimiy komissiyalari o‘rtasida qo‘shma eshituvlar, hududiy monitoringlar va maslahatlashuvlar o‘tkazish tartibini belgilash zarur. Bu parlament nazoratining hududiy ma’lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, “Senat mahalliy Kengashlar” elektron hamkorlik platformasini yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu platformada mahalliy Kengashlar tomonidan yuborilgan takliflar, hududiy muammolar, hokim hisobotlari bo‘yicha qarorlar, Senat qo‘mitalarining javoblari va parlament nazorati natijalari aks ettirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari o‘rtasidagi hamkorlik xalq hokimiyatchiligi, vakillik demokratiyasi, hududiy manfaatlarni ifodalash va parlament nazoratini samarali amalga oshirishning muhim konstitutsiyaviy-huquqiy vositasidir. Konstitutsiyada Senatning hududiy vakillik palatasi sifatidagi maqomi, uning mahalliy vakillik organlari deputatlari tomonidan saylanishi hamda xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari sifatidagi maqomi ushbu hamkorlikning mustahkam konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda Senat va mahalliy Kengashlar o‘rtasidagi hamkorlikning aniq protsessual mexanizmlari yetarli darajada rivojlantirilmagan. Xususan, mahalliy Kengashlar qarorlarini Senat faoliyatiga integratsiya qilish, hokim hisobotlari natijalarini parlament nazoratida umumlashtirish, hududiy takliflarni Senat qo‘mitalarida ko‘rib chiqish va elektron axborot almashinuvi tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

Shu bois Senat va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari hamkorligini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash, ushbu hamkorlikning shakllari, tartibi va

natijadorlik mezonlarini belgilash hududiy manfaatlarning parlament darajasida to‘laqonli ifodalanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – B. 13–14;
2. Aymuratov S. O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari vakolatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2023. – Vol. 3, Issue 8. – B. 82.
3. Turdiyeva B. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari // Modern Education and Development. – 2025. – №37, 3-qism. – B. 373.
4. ЮРИДИЧЕСКИЙ Т. Г., ХАКИМОВ Р. Р. КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
5. O‘zbekiston Respublikasining 02.09.1993-yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi 913-XII-сонli qonuni;